

O‘QUV QUROLLARI TERMINLARINING STRUKTUR-SEMANTIK JIHATLARI

Xamidjonova Dilnura

Andijon Davlat Texnika Instituti stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqoladmi o'quv qurollari terminlarining struktur-semantik jihatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotimizdada terminlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning morfologik tuzilishi hamda sodda, qo'shma va birikmali shakllarda qo'llanishi keng tahlil qilinadi. Maqolada Charlz J. Fillmorning terminlarning semantik xususiyatlar nazariyasi hamda so'z ma'nosini vektor va kognitiv modellar orqali ifodalashga doir ilmiy qarashlari keng yoritilib, o'quvchilarga tushunchalar beriladi. Olingan natijalar terminologiya, tilshunoslik va ta'lim metodikasi uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *o'quv qurollari, termin, struktur tahlil, semantika, leksik birlik, morfologiya, terminologiya, kognitiv yondashuv, semantik xususiyatlar, ta'lim leksikasi.*

Аннотация

В данной статье научно рассматриваются структурно-семантические аспекты терминов учебных принадлежностей. В исследовании подробно анализируются лексико-семантические особенности терминов, их морфологическая структура, а также их употребление в простых, сложных и словосочетательных формах. В статье широко освещаются научные взгляды Чарльза Дж. Филлмора на теорию семантических признаков, а также когнитивные и векторные модели представления значения слова, что способствует формированию понимания у читателей. Полученные результаты имеют теоретическое и практическое значение для терминологии, лингвистики и методики преподавания.

Ключевые слова: *учебные принадлежности, термин, структурный анализ, семантика, лексическая единица, морфология, терминология, когнитивный подход, семантические признаки, учебная лексика.*

Abstract

This article examines the structural and semantic aspects of educational tool terms on a scientific basis. The study provides a detailed analysis of the lexical-semantic features of terms, their morphological structure, and their usage in simple, compound, and phrase-based forms. The article also highlights Charles J. Fillmore's theory of semantic features, as well as cognitive and vector-based approaches to representing word meaning, which help to provide clear conceptual understanding for readers. The obtained results are of both

theoretical and practical significance for terminology studies, linguistics, and teaching methodology.

Keywords: *educational tools, term, structural analysis, semantics, lexical unit, morphology, terminology, cognitive approach, semantic features, educational vocabulary.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida til birliklarini ilmiy asosda o‘rganish, xususan, terminologik qatlamni tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki har bir fan sohasi o‘ziga xos terminlar tizimiga ega bo‘lib, ular orqali bilimlar aniq, ixcham va tizimli tarzda ifodalanadi. Shu jihatdan o‘quv qurollari terminlari ham ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallaydi va o‘quvchi hamda o‘qituvchi faoliyatida asosiy kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. So‘nggi yillarda tilshunoslikda terminlarning nafaqat leksik, balki struktur va semantik jihatlarini kompleks tarzda o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa so‘zlarning ichki tuzilishi hamda ma’no qatlamlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. O‘quv qurollari terminlari ham sodda, qo‘shma va birikmali shakllarda uchraydi, har biri o‘ziga xos semantik yuklama va funksional xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Charlz J. Fillmor tomonidan ilgari surilgan semantik xususiyatlar nazariyasi so‘z ma’nosini jonlilik, faollik, kishilik kabi belgilar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda so‘z ma’nosini vektor modellari va kognitiv yondashuvlar orqali ifodalash keng tarqalmoqda. Ushbu nazariy qarashlar o‘quv qurollari terminlarining semantik tuzilishini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quv qurollari terminlarining struktur-semantik jihatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim metodikasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu terminlarning tuzilishi, ma’no xususiyatlari hamda ularning ilmiy asosda talqin etilishi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Mazkur tadqiqotimizda o‘quv qurollari terminlarining struktur-semantik jihatlarini o‘rganish masalasi zamonaviy tilshunoslikning semasiologiya, leksikologiya va kognitiv lingvistika yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqligi asosida yoritiladi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy ishlar so‘z ma’nosini faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki murakkab tizim sifatida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Charlz J. Fillmor tomonidan ishlab chiqilgan semantik xususiyatlar nazariyasiga ko‘ra, so‘zlar ma’lum semantik belgilar asosida tavsiflanadi. Jumladan, jonlilik, faollik, kishilik kabi belgilar so‘zning ichki ma’no tuzilishini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “o‘quvchi” so‘zi inson, faol belgilariga ega bo‘lsa, “qalam” so‘zi jonli, predmet semantik xususiyatlari bilan ifodalanadi. Bu yondashuv o‘quv qurollari terminlarining semantik tasnifini amalga

oshirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda so‘z ma‘nosini vektor tasvirlar orqali ifodalash usuli keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, “daftar”, “kitob”, “qalam” kabi o‘quv qurollari terminlari semantik makonda o‘zaro yaqin nuqtalar sifatida joylashadi va umumiy “o‘quv vositalari” konseptini hosil qiladi. Bu esa ularning semantik yaqinligini va funksional bog‘liqligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv qurollari terminlari struktur jihatdan ham turli ko‘rinishlarga ega. Ular sodda, qo‘shma va birikmali shakllarda uchraydi. Masalan:

- sodda terminlar: “qalam”, “daftar”, “kitob”
- qo‘shma terminlar: “rangli qalam”, “matematika daftari”
- birikmali terminlar: “elektron doska”, “o‘quv qurollari”

F. de Sossyur tomonidan ilgari surilgan sistem-struktur yondashuvga ko‘ra, til birliklari o‘zaro munosabatda bo‘lgan tizim sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, “daftar” so‘zi “yozish”, “dars”, “qalam” kabi birliklar bilan semantik aloqada bo‘lib, ma‘nosini tizim ichida to‘liq namoyon etadi. Shuningdek, zamonaviy kognitiv yondashuvga ko‘ra, so‘z ma‘nosi inson ongida shakllanadigan konseptual birlik sifatida qaraladi. Masalan, “kitob” faqat predmet emas, balki bilim manbai sifatida ham tasavvur qilinadi. Bu esa o‘quv qurollari terminlarining semantik kengayishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv qurollari terminlari oddiy leksik birliklar emas, balki murakkab struktur-semantik tizimga ega lingvistik birliklar hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonida aniq predmetlarni ifodalash bilan birga, kognitiv va semantik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

O‘quv qurollari terminlarining struktur-semantik xususiyatlarini yoritishda zamonaviy lingvistik yondashuvlar, xususan, leksik-semantik va kognitiv tahlil metodlari asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida terminlarning til tizimidagi o‘rni, ularning semantik maydondagi munosabatlari hamda morfologik tuzilishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Darhaqiqat, terminlarning til taraqqiyotidagi o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, ular nafaqat ilmiy tushunchalarni ifodalash, balki milliy tilning boyishiga ham xizmat qiladi. Shaxsiy tajribamga tayanib aytishim mumkinki, metodologik yondashuvlarimdan kelib chiqib, terminlarni o‘rganishda ularning faqat leksik birlik sifatida emas, balki tizimli semantik maydonning tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda asosan tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tahliliy hamda struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, Firuza Ikramovna Andapulatoeva tomonidan ilgari surilgan terminlarning tematik tasnifi va ularning etimologik qatlamiga oid qarashlar asosiy nazariy manba sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, S. Ibrohimov va Sh. Shoabdurahmonov kabi olimlarning kasb-hunar leksikasi haqidagi ilmiy ishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Tahlil jarayonida terminlarning giper-giponimik, partonimik va xolo-meronimik

munosabatlari alohida o‘rganildi. Masalan, kulolchilik leksikasida “tovoq” giperonimi ostida turli giponimlar (charx tovoq, naqshin tovoq, la’li tovoq kabi) mavjudligi struktur-semantik tizimni yaqqol namoyon etadi. Bu esa terminlarning faqat alohida so‘z emas, balki murakkab semantik tarmoq ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, terminlarning yasashida affiksatsiya usuli ham tahlil qilindi. -chi, -kor, -soz kabi qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘lgan terminlar ularning morfologik imkoniyatlarini ochib beradi. Bunday yondashuv terminlarning til tizimidagi dinamik rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Tadqiqotda qo‘llangan metodologik yondashuvlar terminlarning struktur va semantik jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Bu esa o‘quv qurollari terminologiyasini ilmiy asosda o‘rganish va uning tilshunoslikdagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar

Ushbu tadqiqot jarayonida o‘quv qurollari terminlarining struktur-semantik jihatlarini keng va tizimli tarzda tahlil qilindi. O‘tkazilgan lingvistik kuzatishlar natijasida terminlarning nafaqat leksik birlik sifatida, balki murakkab semantik tizimning muhim bo‘g‘ini ekanligi aniqlandi. Men olib borgan tahlillarimdan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, terminlar tilning ichki imkoniyatlarini namoyon etuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, tadqiqot davomida terminlarning giper-giponimik munosabatlari alohida ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Masalan, kulolchilik sohasiga oid “tovoq” giperonimi ostida charx tovoq, naqshin tovoq, la’li tovoq kabi bir qator giponimlar mavjudligi ularning semantik maydonda tizimli joylashganini ko‘rsatadi. Men shaxsiy tahlillarimdan kelib chiqib aytishim mumkinki, bunday ierarxik munosabatlar terminlarning mazmuniy boyligini va tizimlilik darajasini yanada yaqqol ifodalaydi.

Shuningdek, partonimik va xolo-meronimik munosabatlar ham muhim natija sifatida qayd etildi. Xususan, “choynak” butunlik sifatida qopqoq, tumshuq, sop kabi qismlardan tashkil topishi uning ichki struktur tuzilishini ochib beradi. Men olib borgan kuzatishlar asosida shuni qayd etish mumkinki, bu kabi munosabatlar terminlarning faqat nomlash vazifasini emas, balki ularning ichki semantik bog‘liqligini ham namoyon etadi.

Terminlarning struktur-semantik tahlili

No	Tahlil yo‘nalishi	Lingvistik xususiyat	Misollar	Natija va izoh
1	Giper-giponimik munosabat	Umumiy va xususiy ma‘no o‘rtasidagi ierarxiya	tovoq → charx tovoq, naqshin tovoq, la‘li tovoq	Terminlar semantik maydon ichida tizimli joylashganini ko‘rsatadi
2	Partonimik munosabat	Butun va uning qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik	choynak → qopqoq, sop, tumshuq	Terminlar ichki struktur tuzilishga ega ekanini tasdiqlaydi
3	Morfologik tuzilish	Sodda, qo‘shma va birikmali shakllar	sodda: ko‘za; qo‘shma: bodomgul; birikmali: doirasimon naqsh	Terminlar shakliy jihatdan rang-barang va boy tizimga ega
4	Affiksatsiya	So‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali hosil bo‘lish	naqshchi, xumdonchi, chinnisoz	Tilning ichki imkoniyatlari orqali terminlar boyib boradi
5	O‘zlashgan qatlam	Boshqa tillardan kirib kelgan terminlar	keramika, farfor, naqsh, amfora	Terminologiya xalqaro va tarixiy ta’sirlar asosida shakllangan
6	Semantik tahlil	Ma‘no kengayishi va tizimlilik	tovoq, ko‘za, lagan tizimi	Terminlar faqat nom emas, balki konseptual tizimni ifodalaydi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv qurollari terminlari tuzilish jihatidan ham turlicha ko‘rinishlarga ega. Ular sodda, qo‘shma va birikmali shakllarda uchraydi. Masalan, “tovoq”, “ko‘za” kabi sodda, “bodomgul”, “qalampirgul” kabi qo‘shma hamda “doirasimon naqsh”, “rombsimon shakl” kabi birikmali terminlar tizimning rang-barangligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sobirov S. O‘zbek tilining sistemalar sistemasi tamoyillari asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
2. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Usmonov S. O‘zbek tili terminologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1964.
4. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent, 1959.

5. Bulatov S.S., Tursunaliyev N. Kulolchilik san’ati. – Toshkent, 2002.
6. Navoiy asarlari lug‘ati / Tuzuvchilar: Shamsiyev P., Ibrohimov S. – Toshkent: Fan, 1978.
7. Andapulatoва F.I. Terminlarning tildagi o‘rni va ahamiyati. – Scientific Progress, 2023.